

YAPON TILIDAGI 「に」 VA 「で」 QO'SHIMCHALARI: GRAMMATIK VA TARJIMA NUQTAYI NAZARIDAN QIYOSIY TAHLIL

Mulekova Linara Ramilevna

O'zDJTU Sharq filologiya fakulteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yapon tilidagi 「に」 va 「で」 postpozitsiyalarining grammatik vazifalari va ularning o'zbek tiliga tarjimasida yuzaga keladigan muammolar tahlil etiladi. Ayniqsa, har ikki qo'shimchaning o'zbek tilidagi –da qo'shimchasi bilan tarjima qilinishi natijasida yuzaga keladigan chalkashliklar va grammatik xatolar ko'rib chiqiladi. Maqolada qiyosiy tahlil usulida yapon va o'zbek tillaridagi joy, vaqt, vosita va yo'nalish ma'nolari taqqoslanadi. Amaliy misollar asosida talabalar va tarjimonlar orasida uchraydigan xatolar aniqlanib, ularning sabablariga nazariy yondashuv bildiriladi. Maqola yapon tilini o'rganuvchilar va tarjima bilan shug'ullanuvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yapon tili, qo'shimchalar, tarjima xatolari, grammatik tahlil, qiyosiy tilshunoslik.

Abstract: This article analyzes the grammatical functions of the Japanese postpositions 「に」 (ni) and 「で」 (de), and the issues that arise when translating them into Uzbek. Special attention is given to the confusion caused by the fact that both particles are often translated as “–da” in Uzbek, despite their differing grammatical roles. A comparative analysis is conducted to examine expressions of location, time, means, and direction in both Japanese and Uzbek. Through practical examples, common mistakes made by students and translators are identified and theoretically interpreted. The article is of practical value for learners of Japanese and those involved in translation.

Key words: Japanese language, particles, translation errors, grammatical analysis, comparative linguistics.

Аннотация: В данной статье анализируются грамматические функции японских послелогов 「に」 (ни) и 「で」 (дэ), а также проблемы,

возникающие при их переводе на узбекский язык. Особое внимание уделяется тому, что обе частицы часто переводятся как «–да» на узбекский, несмотря на различие их грамматических функций. В статье проводится сравнительный анализ выражения места, времени, способа действия и направления в японском и узбекском языках. На основе практических примеров выявляются типичные ошибки, совершаемые студентами и переводчиками, и дается их теоретическое обоснование. Статья представляет практический интерес для изучающих японский язык и занимающихся переводом.

Ключевые слова: японский язык, частицы, ошибки перевода, грамматический анализ, сопоставительное языкознание.

Yapon tili grammatik jihatdan murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, undagi qo‘shimchalar gap ma’nosini aniqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, 「に」 va 「で」 qo‘shimchalari joy, vaqt va vosita kabi tushunchalarni ifodalashda keng qo‘llaniladi. Bu qo‘shimchalar o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda ko‘pincha bitta shakl – [–da] orqali beriladi, bu esa anglashilmovchiliklarga sabab bo‘ladi. Yapon tilini o‘rganayotganlar uchun bu ikki qo‘shimchani farqini tushunish va to‘g‘ri qo‘llash juda muhim. Shu sababli ushbu mavzuni o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega.

Yapon tilida 「に」 qo‘shimchasi ko‘p funksiyalarga ega bo‘lib, u asosan joy, yo‘nalish, vaqt, maqsad, qabul qiluvchi shaxs va harakat natijasini bildiradi. Quyidagi jadvalda ularning asosiy vazifalarini va o‘zbek tilidagi ifodalanish shakllari ko‘rsatilgan:[4]

Vazifasi		Ishlatilishi	Misol	O‘zbekcha tarjimasi
1.	Yo‘nalish	Harakat qayerga bo‘lsa	学校 に行きま す。	Maktabga boraman.

2. Vaqt	Harakat qachon sodir bo‘ladi.	7時に 起きます。 。	Soat 7da turaman.
3. Maqsad	Harakat nima uchun amalga oshirilmoqda.	勉強 しに来ま した。	O‘qishga keldim.
4. Qabul qiluvchi	Kimga nisbatan harakat yo‘naltirilgan.	友だ ちに手紙 を書きま す。	Do‘stimga xat yozaman.
5. Natija nuqtasi	Harakat natijasi yoki holatning yakuni.	駅に 着きまし た。	Vokzalga yetib keldim.
6. Joy(statik holat)	Kim yoki nima qayerda joylashgan (bor).	机の 上に本が あります 。	Stol ustida kitob bor.

Bundan tashqari, 「に」 va 「へ」 ba‘zan yo‘nalishni bildirishda bir-biriga o‘xshash bo‘ladi, lekin 「に」 ko‘proq aniq manzilga yetib borishni bildiradi.

「に」 ko‘pincha vaqt bildirganda aniq vaqt bo‘lishi kerak: soat, kun, oy (lekin “har kuni” kabi so‘zlar bilan ishlatilmaydi).[1-2]

Yapon tilida 「で」 qo‘shimchasi asosan harakat amalga oshadigan joy, vosita, sabab, vosita orqali bajariladigan til, shakl kabi ma’nolarda ishlatiladi.

Vazifasi	Ishlatilishi	Misol	O‘zbekcha tarjimasi
----------	--------------	-------	---------------------

1. Harakat joyi	Harakat qayerda sodir bo'lmoqda.	学校で勉強します。	Maktabda o'qiyman.
2. Vosita/usul	Harakat qanday amalga oshmoqda.	バスで行きます。	Avtobusda boraman.
3. Til/shakl	Harakat qaysi til va uslubda amalga oshdi.	日本語で話します。	Yapon tilida gaplashaman.
4. Sabab	Hodisa/harakat nimaga ko'ra yuz berdi.	病気で学校を休みました。	Kasallik tufayli maktabga bormadim.
5. Son/miqdor birlik	Biror narsaning narxi yoki miqdorini ko'rsatadi.	一万円でカメラを買いました。	10 ming yenga kamera sotib oldim.

Yapon tilidagi 「に」 va 「で」 qo'shimchalari o'zbek tiliga ko'pincha “-ga”, “-da” deb tarjima qilinadi. Biroq bu ikki qo'shimchaning vazifasi va qo'llanish doirasi keskin farqlanadi. 「に」 qo'shimchasi asosan yo'nalish, natija holati, vaqt nuqtasi yoki mavjudlikning joyini bildiradi. 「で」 esa harakatning amalga oshish joyi, vosita, sabab kabi ma'nolarini anglatadi.[3]

Yapon tilini o'rganayotgan o'zbek tilidagi o'quvchilar ko'pincha “-da” qo'shimchasi qaysi yaponcha qo'shimchaga mos kelishini aniqlashda qiynaladilar. Chunki o'zbek tilidagi “-da” ko'plab ma'nolarni ifoda etadi: joyda bo'lish, joyda

harakat, sabab, vosita, mavjudlik va hokazo. Yapon tilida esa bu ma'nolar ikkita turli qo'shimcha - 「に」 va 「で」 orqali ajratib beriladi.

Kontekst (o'zbek tilidagi “-da”)	Yapo n tilida	Izoh	Yaponch a misol	O'zbekch a tarjimasi
Joyda harakat sodir bo'lishi	で	Harkat aynan shu joyda bajariladi.	学校で 勉強します 。	Maktabda o'qiyman.
Joyda mavjudlik	に	Biror narsa/ odam joyda mavjud(harakat emas)	部屋に 本がありま す。	Xonada kitob bor.
Joyga borish	に	Harakat yo'nalgan manzil	学校に 行きます。	Maktabga boraman.
Joyda o'tirish/yotish	に	Holat natijasi, joyga o'rnashish	いすに すわります 。	Stulda o'tiraman.
Joyda uchrashuv/hodi sa	で	Hodisa/harak at aynan joyda sodir bo'ladi	公園で 会いましょ う。	Bog'da uchrashaylik.
Vosita (narsalar bilan)	で	Harakat nimaning yordamida bajarilmoqda	バスで 行きます。	Avtobusd a boraman.
Sabab	で	Nimadir sababli biror holat yuz berdi	病気で 学校を休み ました。	Kasallik sababli

				maktabga bormadim.[1]
--	--	--	--	--------------------------

Shin Kanzen Master: JLPT N4[2] Bunpō darsligi yapon tili grammatikasi, xususan yordamchi soʻzlar (助詞) mavzusini tizimli va sodda usulda yoritadigan manbalardan biridir. Ushbu qoʻllanmada 「に」 va 「で」 qoʻshimchalari alohida boʻlimlarda koʻrib chiqilib, ularning vazifalari aniq mezonlar asosida farqlanadi. Kitobning yondashuvi murakkab grammatik qoidalarni minimal nazariya va koʻp amaliy yoʻriqnoma orqali tushuntirishga qaratilgan. Qoʻllanmada 「に」 va 「で」 oʻrtasidagi farqni aniqlash uchun asosiy eʼtibor harakatning mavjud yoki mavjud emasligiga qaratiladi. Bu esa oʻrganuvchilar uchun qoʻshimchalarning qoʻllanishini tez anglash va tarjimada xato qilmaslikka xizmat qiladi. Shuningdek, boʻlimdagi qisqa izohlar, mantiqiy sxemalar va muhim eslatmalar mavzuni eslab qolishni osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. 3A Corporation. *Minna no Nihongo I: Main Text (2nd Edition)*. Tokyo: 3A Network, 2012.
2. Shimizu, Y., et al. *Shinkanzen Master: JLPT N4 Bunpō*. Tokyo: ASK Publishing, 2013.(p:94)
3. **Shinsuke, K. A Dictionary of Basic Japanese Grammar**. Japan: The Japan Times Publishing, 1986.
4. **Makino, S., & Tsutsui, M. A Dictionary of Intermediate Japanese Grammar**. Japan: The Japan Times Publishing, 1995.
5. **Makino, S., & Tsutsui, M. A Dictionary of Advanced Japanese Grammar**. Japan: The Japan Times Publishing, 2008.
6. **Nihongo Kyouiku Gakkai. 日本語教育ハンドブック（助詞・助動詞）**. Tokyo: ALC Press, 2012.
7. **Kindaichi, H. 日本語文法入門**. Tokyo: Iwanami Shoten, 2005.

8. Teramura, H. *日本語の文法 (1・2 巻)*. Tokyo: Kurosio Publishers, 1991.
9. Mizutani, O. *An Introduction to Modern Japanese*. Tokyo: The Japan Times, 1987.
10. Nagahara, Y. *日本語の助詞の使い方辞典*. Tokyo: Seibido Publishing, 2010.